

SAID AHMADNING “QORAKO‘Z MAJNUN” ASARINI O‘QIB BO‘LGANDAN KEYINGI TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TAHLIL ETISH ORQALI O‘QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Shoira Saydullayeva

ToshDO‘TAU 2-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Said Ahmadning “Qorako‘z majnun” hikoyasi o‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlar asosida tahlil etiladi. Topshiriqlar muammoli savollardan iborat bo‘lib, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, “Qorako‘z majnun” hikoyasi, muammoli savollar, e‘tiqod masalasi.

Аннотация. В данной статье рассказ Саида Ахмеда «Черноглазый меджнун» анализируется на основе заданий после чтения. Задания состоят из проблемных вопросов, которые отражают важность развития критического мышления.

Ключевые слова: критическое мышление, рассказ «Черноглазый меджнун», проблемные вопросы, вопрос веры.

Annotation. In this article, the story of Said Ahmed "Black-eyed majnun" is analyzed based on the post-reading assignments. Assignments consist of problematic questions, which reflect on the importance of developing critical thinking.

Keywords: critical thinking, the story of "Black-eyed majnun", problematic questions, the question of faith.

Said Ahmadning 1999-yilda yozilgan “Qorako‘z majnun” hikoyasi milliy adabiyotimizning qimmatli asarlaridan biri hisoblanadi. Asar hikoya janriga mansub bo‘lib, o‘qiguvchini o‘ziga tez jalb qiladi. Tili sodda, tushunarli, oson o‘qiladi. Oson o‘qiladi-yu chuqur o‘yga toldiradi. Asarning yutug‘i shundaki, u zamon tanlamaydi, vaqlar o‘tsa-da, ohori to‘kilmaydi. Asarning bosh g‘oyasi – bu e‘tiqod masalasidir. Buni o‘quvchilarga anglatish jarayoni qanday olib borilishi haqida fikr yuritimiz.

Hozirgi zamon o‘quvchisi yangillika o‘ch, fiklashi tezligini hisobga olgan holda, ularning ushbu qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olishimiz muhim, albatta. Ma‘lumki, tanqidiy fikrlash negativ munosabat bildirish, bironing fikrini shubha ostiga olish yoki tanqid qilish emas, balki da‘voning to‘g‘riligini aniqlashda aqlni oqilona qo‘llashdir. Soddaroq qilib aytganda, nima qilish yoki nimaga ishonish kerakligi haqida aniq va oqilona o‘ylash qobiliyatidir. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun esa badiiy asar tahlili jarayoni katta yordam beradi.

Adabiyotshunos Zulxumor Mirzayevaning ta'kidlashicha, xorijda adabiyot o'qitilishining bizdan farq qiladigan yana bir jihati – adabiyot o'qitish metodikasida badiiy matn bilan ishlashning muayyan bosqichlari (**asarni o'qishdan oldin, o'qish davomida va o'qishdan keyin**) mavjudligi. Har bir bosqichning o'z maqsadi va uslublari bor. O'qishdan oldingi mashqlar o'quvchini asarga qiziqtirish, asar mazmunini tushunishga tayyorlashga xizmat qilsa, o'qish davomida bajariladigan mashqlar bevosita badiiy matnni tushunish — tahlil qilishga qaratiladi. Bunda asar tahlili faqat syujetni qayta hikoyalash bilan cheklanmaydi. O'qishdan keyingi mashqlar esa asar ustida chuqur mushohada yuritish, adabiyotning, san'atning boshqa turlari, boshqa fanlar va o'quvchi hayoti bilan aloqasini ta'minlash, o'quvchida og'zaki va yozma nutqni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga qaratiladi [1. Z.Mirzayeva, K. Jalilov, 18-bet].

Biz asar tahlili jarayonida aynan o'qishdan keyingi topshiriqlar haqida fikrlashamiz. Asar tahlilining bu bosqichi eng muhim bosqich sanaladi. Ushbu jarayonda quyidagilar bajarilishi mumkin:

- asar qahramonlariga baho berish;
- asarning kulminatsion nuqtasini topib sahnalashtirish;
- asar qahramonlariga maktub yozish;
- asar bilan bog'liq turli jadvallar, chizmalar yaratish;
- asarni boshqa asarlar bilan qiyoslash orqali tushunish kabi jarayonlar bajariladi [1. Z.Mirzayeva, K. Jalilov, 65-bet].

Asarni o'qib bo'lgandan keyingi bosqichda o'quvchilarga muammoli savol qo'ya olish muhim hisoblanadi. Asarni o'qish davomida berilgan savollarga javobni kontekstdan bemalol topish mumkin. Shuning uchun ham ular oddiy savol sanaladi. Biroq muammoli savolga javob matndan emas, balki o'quvchining individual fikrlashi, dunyoqarashidan kelib chiqib javob berishiga asoslanadi, uni mustaqil fikrlashga undaydi. Uning javobi bir nechta bo'lishi mumkin. O'quvchi hayotdan olgan bilim va ko'nikmalariga tayanib muammoli savolga javob topadi. Bunda dastlab o'quvchilarga to'g'ri savol qo'ya olish ham muhim sanaladi. Chunki savol o'quvchini o'ylashga majbur qiladi. Savollar ko'magida murakkab vaziyatlarni tashkil etish bilan o'qituvchi o'quvchilar bilimi, fikriy faolligini oshiradi, hodisaning chuqur o'zlashtirilishiga ko'maklashadi, ularning tajribasini boyitadi, murakkab masalalarning yechimiga mustaqil ravishda erishishlariga yordamlashadi. Bunday favqulodda ta'limiy vaziyat yaratish, savol bilan o'quvchini hayratga solish unda mavjud avvalgi tasavvurlarga qarama-qarshi bo'lganidan kuchli hissiyot uyg'otadi. Hayrat tushunishning boshlanishi va u bilishga olib boradigan yo'ldir [2. Husanboyeva Qunduzxon, Niyozmetova Roza 256-b.].

Tahlilning ushbu bosqichida quyidagi muammoli savollarni berishimiz mumkin.

“Muammoli savol” metodi

1. Sizningcha, e’tiqod nima?
2. Nima deb o’ylaysiz, asar nega “Qorako‘z majnun” deb nomlangan? Asardagi “majnun” to‘g‘ri tanlanganmi?
3. Saodat ayaning o‘g‘li Bo‘rixon nega qishlog‘iga qaytib keldi?
4. ***“U otasi o‘tgan uyda, tuqqan onasiga, jigarlariga begona bo‘lib beparvo yotibdi”*** [3. Said Ahmad, “Qorako‘z majnun”]. Jumlagi e’tibor bering. Sizningcha, Bo‘rixonning shunday “ODAM”ga aylanib qolishiga nima sabab bo‘ldi?
5. Bo‘rixonning kelajagi qanday kechadi deb o’ylaysiz?
6. ***Qur‘oni karimdan: «Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».***
(Baqara surasi, 217-oyat.)
Bu oyat sizga tanishmi? Bu haqda bilarmidingiz? Hech shu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz?
7. Inson hayotida onaning o‘rni qay darajada? Ona siz uchun kim? Muqaddas islom dinimiz bunga qanday qaraydi?
8. ***“— Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o‘sma... Kampir shu jilmayganча ichidagi muz erimay osongina jon berdi”.*** Kampirning ichidagi muz nima edi?
9. Inson hayotida onaning o‘rni qay darajada? Ona siz uchun kim? Muqaddas islom dinimiz bunga qanday qaraydi?
10. Asarning muallif nazarda tutgan, lekin yozilmagan qismlari bormi? Fikringizni asoslang.

Bu kabi savollar o‘quvchilar jamoasini jonlantiradi, ularni keng mushohada qilishga undaydi. Tahlil jarayoni to‘g‘ri tashkillashtirilsa ko‘zlangan maqsadga erishish oson bo‘ladi. Misol tariqasida, yuqoridagi 6-savolni muhokama qilish jarayoni haqida so‘z yuritamiz.

6. ***Qur‘oni karimdan: «Sizlardan qaysi biringiz o‘z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o‘lsa, bas, ana o‘shalarning (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo‘lur, ular do‘zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar».***

(Baqara surasi, 217-oyat.)

Bu oyat sizga tanishmi? Bu haqda bilarmidingiz? Hech shu haqda o‘ylab ko‘rganmisiz?

Ushbu oyatni sharhlash uchun diniy bilimlar zarur bo‘ladi. O‘quvchilarga din haqida gapirilganda nihoyatda ehtiyotkorlik shartdir. Bunda aniq faktlarga tayaniladi.

Oyatdagi "habata" so‘zini boshqa tarjimalardagi kabi, "behuda bo‘ldi", "botil bo‘ldi" yoki "bekor ketdi" deb tarjima qilmaymiz. Chunki bu iboralarning hech qaysisi "habata" so‘zidagi ma‘noni to‘liq aks ettira olmaydi. "Habata" so‘zi aslida biror

hayvonning ko'p ovqat yeganidan qorni shishib, yorilib o'lganini bildiradi. Ya'ni yegan ovqati unga ozuqa bo'lmay, aksincha, yorilib o'lishiga sabab bo'ldi. Dindan qaytgan murtd ham xuddi shunday holga tushadi. Dindan qaytgani uchun barcha qilgan amallari habata bo'ladi. Musulmon kishi har qanday sharoitda dinini mahkam tutishi kerak. Har qanday azob, har qanday uqubat uni dinidan qaytara olmasligi lozim. Sabr qilsa, oqibati yaxshi bo'ladi: yoki shahid bo'lib o'ladi, yoki nusratga erishadi. Ammo Alloh ko'rsatmasin, dindan haqiqatda qaytadigan bo'lsa, oqibati yomon bo'ladi: duno-yu oxiratda amali habata bo'ladi. Bu dunyoda Islom davlati uni murtd bo'lganining jazosiga o'ldiradi, u dunyoda esa jahannamda abadiy qoladi.

Boshlang'ich diniy bilimlar asosan oilada beriladi, biroq ba'zi o'quvchilar borki, dindan butunlay bexabar. Hatto Payg'ambarimiz, uning go'zal amallari haqida tasavvurga ega emaslar. Demak, maktab ta'limida boshlang'ich diniy bilimlarning to'g'ri berilishi kerak aslida.

Xulosa qilib aytganda, tanqidiy fikrlash bu biror hukmning aynan to'g'riligini yoki noto'g'riligini aniq faktlar orqali isbotlay olish ekanini hisobga olib, asar tahlili jarayonida muammoli savollardan o'rinli foydalanish orqali o'quvchilarning ongini, tafakkur jarayonini rivojlantirishga, to'g'ri yo'naltirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Mirzayeva, K. Jalilov, Adabiyot o'qitish metodikasi (an'anaviylikdan zamonaviylikka), T.: 2020.
2. Husanboyeva Qunduzxon, Niyozmetova Roza Adabiyot o'qitish metodikasi/o'quv qo'llanma/Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 256-b.
3. Саид Аҳмад. "Қоракўз мажнун". Ҳикоялар. Т.: "Ўзбекистон". 2001. – 240 б.
4. <https://islom.uz/view/bakara-curasi-217-oyat>